

**DIPLOMATIK MATNLARDA UCHRAYDIGAN ASOSIY EVFEMIZM
KATEGORIYALARI****Urinbayeva Maftuna Yuldash qizi***ToshDo 'TAU talabasi**urinbayevamaftuna454@gmail.com**+99833 557 68 18*

Annotatsiya: Mazkur maqolada diplomatik matnlarda uchraydigan asosiy evfemizm kategoriyalari lingvopragmatik va semantik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda evfemizmlarning diplomatik diskursdagi kommunikativ vazifalari, xususan, siyosiy keskinlikni yumshatish, salbiy mazmunni neytrallashtirish hamda rasmiy muomalada muvozanatni saqlashdagi roli yoritib berilgan. Shuningdek, diplomatik nutqda keng qo'llaniladigan evfemizmlarning tematik guruhlari va ularning kontekstual xususiyatlari aniqlangan. Maqolada zamonaviy diplomatik hujjatlar va bayonotlar asosida misollar tahlil qilinib, evfemizmlarning til va siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadagi ahamiyati ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: *diplomatik diskurs, evfemizm, siyosiy til, lingvopragmatika, semantika, rasmiy nutq, kommunikativ strategiya, tabu.*

Hozirgi kunda diplomatik matnlar siyosiy manfaatlar, davlatlararo munosabatlar va xalqaro hamkorlikni ifodalovchi muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.. Ushbu matnlarda qo'llaniladigan til birliklari nafaqat axborot uzatish, balki muayyan siyosiy pozitsiyani yashirin yoki bilvosita ifodalash vazifasini ham bajaradi. Aynan shu jarayonda evfemizmlar diplomatik diskursning ajralmas qismi sifatida yuzaga kelmoqda. Evfemizmlar diplomatik matnda keskinlikni yumshatish, salbiy yoki noqulay holatlarni diplomatik me'yorlarga mos tarzda ifodalash hamda muloqot ishtirokchilari o'rtasida muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Ularning qo'llanilishi xalqaro munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni oldini olish imkonini beradi. Shu sababli diplomatik matnlarda uchraydigan evfemizm kategoriyalarini tizimli o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Evfemizmning paydo bo'lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog'liq. U nafaqat til hodisasi (ifoda etayotgan shaxs nuqtai nazaridan noqulay bo'lgan birliklar o'rnida qo'llangan so'z, so'z birikmasi yoki gap), balki insonning nutqiy vaziyatni qaysidir ma'noda o'zgartirishga moyilligi sifatida ham namoyon bo'ladi. Maqbul so'z qo'llana turib, so'zlovchi tomonidan man etilgan (tabu) birliklar qo'llanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosoz muhit yumshatiladi. Man etilgan so'zlar esa insoniyat bilan tengqur deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Evfemizm

atamasi grek tilidan olingan bo‘lib, ko‘pchilik mualliflar fikriga ko‘ra, noo‘rin birlikning o‘rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi. A.A.Reformatskiy “Evfemizmlar taqiqlangan (tabulangan) so‘zlar o‘rniga qo‘llanishga ruxsat berilgan so‘zlar” deya ta’rif beradi. A.Hojiyevning 2002 yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati”da evfemizmgacha quyidagicha izoh beriladi: “Evfemiz (grek. euphemismos; eu — yaxshi, phemi — gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘lmagan, botmaydigan so‘z, iborani qo‘llash” deya ta’kidlaydi.

Hozirda rasmiy diplomatik munosabatlarni amalga oshirish va xalqaro shartnoma loyihalarini tuzishda majburiy yagona til mavjud emas (ilgari fransuz tili ustunlik qilgan). Asta-sekin tillarning tengligi tamoyili tasdiqlandi. Kamdan-kam istisnolardan tashqari, tashqi aloqalar davlat organlari rasmiy yozishmalarni, ayniqsa, diplomatik hujjatlar almashinuvini o‘z milliy tillarida olib boradilar. Ko‘p yillar davomida axborotning asosiy manbai ommaviy axborot vositalari bo‘lib kelgan. Ko‘pgina gazeta maqolalari yoki televideniye chiqishlarining mavzusi siyosiy munosabatlardir. Siyosiy nutqqa gazeta va publitsistik matnlar, siyosat va diplomatik munosabatlarga bag‘ishlangan notiq nutqlari, siyosiy mavzudagi rasmiy matnlar (farmonlar, qonunlar) siyosiy maqolalar kiradi. Haqiqiy maqsadlarni yashirish uchun siyosatchilar va diplomatlar yoqimsiz so‘zlarni neytralroq so‘zlar bilan almashtiradilar, ya’ni evfemizmlardan foydalanadilar. L.P.Krisin evfemizmlar qo‘llanadigan ijtimoiy hayotning bir qancha sohalarini keltirib o‘tadi, bular ichida evfemistik ifoda vositalari faol qo‘llanadigan an’anaviy soha diplomatiyadir.

Matbuot sahifalarida va efirda tez-tez yonib turadigan so‘zlar va iboralar masalan haddan tashqari chora – tadbirlarga o‘tish “oldindan aytib bo‘lmaydigan oqibatlar”, “qarama – qarshilik”, tegishli organlar:”, “tinchlikparvar harakatlar”, o‘zaro munosabatlar prinsipi” aynan diplomatik nutqda tug‘iladi. Birgina blok so‘zida muayyan maqsadlarga erishish yo‘lida birgalikda harakat qilishdir. Buni Ittifoq yoki bo‘lmasa, “Davlatlar bloki” deyish mumkin. Boshpana deganimizda bizning xayolimizga biz yashaydigan, istiqomat qiladigan uy nazarda tutiladi, diplomatiya sohasida esa, (siyosiy yordam, siyosiy boshpana), ya’ni moddiy yordam ko‘zda tutiladi.

Diplomatik matnlarda mojaro hamda munozaraga olib kelayotgan vaziyatlarda ishlatiladigan evfemizmlar turlicha tarjima qilinadi. Misol uchun, diplomatik matnda urushni to‘g‘ridan-to‘g‘ri “war” deb tarjima qilish bu siyosiy ziddiyatga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bunda “military operation – harbiy amaliyot” deb tarjima qilinishi aynan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Lekin shu birgina so‘z ham “urush harakati” ma’nosini beradi.

Iqtisodiy va siyosiy inqirozga oid evfemizmlarga misol qiladigan bo‘lsak, odatda davlatlar o‘z holatini “inqiroz” deb atashmaydi, buning o‘rniga “financial

instability” ya’ni “moliyaviy beqarorlik” yoki “economic downturn – iqtisodiy pasayish” deb berishadi.

Diplomatik matnlarda rad javoblarini yetkazish. Siyosiy nutqda hech qachon ikki tomon ham “yo‘q” so‘zini ishlatmaydi. Chunki bunday uslubdan foydalanish ko‘pdan -ko‘p holatlarda diplomatik inqirozga sabab bo‘lishi mumkin. Uning o‘rniga “*we will consider the proposal – biz bu masalani yana ko‘rib chiqamiz*”, aslida bu birlik ham rad javobini berish bilan bir xil hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, hozirgi kunda ijtimoiy-siyosiy sohadagi evfemizmlarning tematik xilma-xilligi ortib bormoqda, bu ularning bu sohadagi roli oshib borayotganidan dalolat beradi. Evfemizmlar nafaqat diplomatiya tilida balki barcha sohalarda qo‘l keladi, xoh u ijtimoiy-siyosiy bo‘lsin hattoki so‘z san’ati madaniyatini yanada go‘zalroq va teran shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdukarimovna, K. S. (2022). RULES FOR THE USE OF EPHEMERALS IN THE ENGLISH-UZBEK JOURNALISTIC STYLE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), B. 545-548.
2. Arapova. S. Evfemizmlar. Lingvistik ensiklopedik lug‘at. 1990-yil.
3. Bobonazarova Y. Nemis diplomatik tilining evfemistik xususiyatlari. So‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI, 2023 - B. 88-89
4. Qodirova. X. o‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. “Bookmany print” nashriyoti, 2022 - B. 3-5.
5. Zhou, Y. (2020). *Euphemistic language in the diplomatic discourse*. Journal of Philology, 3(1), B. 11–15
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild. – Toshkent: o‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
7. Mamarasulova, G. (2025, October). Geopolitical Discourse In Translation. In *International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research* (Vol. 1, No. 4, pp. 254-256).
8. Erkinovna, B. Z. (2025). HISTORICAL AND CULTURAL BACKGROUND OF ENGLISH METAPHORS.
9. Asadov M. A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. International Journal Of Literature And Languages. 2025;5(12):86-9.